

## SO'LISH KASALLIGINING YANGI ISTIQBOLLI G'O'ZA NAVLARIGA TA'SIRI

*Q.B. Razzakov - b.f.f.d. Urganch davlat universiteti, Urganch*  
*H.R. Yusupov - o'qituvchi. Urganch davlat universiteti, Urganch*  
*N.Z. Bekchanova - magistr. Urganch davlat universiteti, Urganch*

So'lish kasalligi o'ta xavfli, ko'p tarqalgan kasallikdir. Paxta yetishtiriladigan barcha davlatlarda g'o'za paykallari shu kasallikdan zararlangan. U O'zbekistonning eskidan haydaladigan yerlarida ko'p tarqalgan. Keyingi yillarda esa shimoliy tumanlarda ham paydo bo'ldi. Respublikamizda g'o'zalarning so'lish kasalligi bilan shikastlanishi tufayli har yili 500-600 ming tonna paxta kam olinmokda.

Viltning dastlabki belgisi g'o'zaning pastki yarusidagi barglarda sariq tusdagi dog'lar hosil bo'lishidir. Bu dog'lar bargning butun sathi bo'ylab tartibsiz ravishda tarqalgan bo'ladi. Keyinchalik bu dog'lar qo'ng'ir tusga kiradi va quriydi. Zararlangan o'simlikda kasallik quyidan yuqoriga qarab rivojlanadi. Zararlangan o'simlik o'sishdan to'xtaydi, barglari to'kiladi va butunlay qurib qoladi. Barcha tugunchalar to'kilib ketadi, qolgan kurtaklar pishmay qoladi. G'o'zada uzoq muddat davomida kasallik xuruj qilsa, barglar butkul to'kilib ketadi, undagi ko'saklar barvaqt majburiy ochiladi.

Ko'pincha avgust oyini oxirlarida kasallikning yashin tezligidagi shakli tarqaladi, bunda 2-3 kun ichida o'simlik butunlay qurib qoladi, qurigan barglar to'kilib ulgurmaydi. Tola va chigit pishib yetilmay qoladi.[1]

Ma'lumki, so'lish kasalligi bilan 400 dan ortiq o'simlik kasallanadi. Ammo makkajo'xori javdar, bugdoy, arpa, sholi beda kabi o'simliklar vilt bilan kasallanmaydi.

Bu kasallik bilan g'o'zaning hamma navlari xam kasallanavermaydi. Kasallanish go'za navlarining biologik xususiyatiga va tashqi muhitga bog'lik. Yangi istiqbolli g'o'za navlari so'lish kasalligiga kam chalinadi.

Yangi istiqbolli "Sulton", "S-8294", "Xurma" navlarining so'lish kasalligiga chalinishini aniqlash maqsadida Urganch shaxrining Paxta seleksiyasi, urugchiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Xorazm ilmiy tajriba stansiyasi (PSU va YAITI Xorazm ITS) dalalarida izlanishlar olib bordik.

### **G'O'ZANING "SULTON" NAVI**

Sulton g'o'za navi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Mualliflar: Sh.Namazov, N.Xo'jambergenov,

X.Husanov va boshqalar.

**Navning tasnifi**

Vegetatsiya davri	115-120 kun
O'simlik bo'yi	110-120 sm
Hosildorligi	38,0-48,3 s/ga
Bitta ko'sakdagi paxta vazni	6,0-6,5 g.
1000 dona chigit vazni	130-135 g.
Tola chiqishi	36-37 %
Shtapel tola uzunligi	1,10-1,15 dyuym
Mikroneyni	4,4-4,5
Tola tipi	V-tip
Nisbiy uzilish kuchi	26,1-27,8 gs/teks



**Navning kelib chiqishi:** G'o'zaning "Sulton" navi turlararo duragaylash va ko'p martalik tanlash yo'li bilan yaratilgan.

**G'O'ZANING "S-8294 (GURLAN)" NAVI**

S-8294 (Gurlan) g'o'za navi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Mualliflar: R.G.Kim, N.Ismailov va boshqalar.

**Navning tasnifi**

Vegetatsiya davri	116-117 kun
O'simlik bo'yi	100-110 sm
Hosildorligi	35– 40 s/ga
Bitta ko'sakdagi paxta vazni	6,0-6,5 g.
1000 dona chigit vazni	110-120 g.
Tola chiqishi	37,0-37,8 %
Shtapel tola uzunligi	1,10-1,15 dyuym
Mikroneyni	4,3-4,5
Tola tipi	V-tip
Nisbiy uzilish kuchi	25,6-27,6 gs/teks



**Navning kelib chiqishi:** G'o'zaning S-8294 (Gurlan) navi konvergent seleksiya usuli bilan F<sub>3</sub>B<sub>3</sub> [F<sub>3</sub>B<sub>2</sub> (F<sub>1</sub>L-158xL-302) x L-158] x L-158) x L-158) x F<sub>3</sub>B<sub>3</sub> [F<sub>3</sub>B<sub>2</sub> (F<sub>1</sub>L-158 x L-302) x L-302) x L-302) x L-302] duragay kombinatsiyasidan ko'p martali yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan.

**G'O'ZANING "XURMA" NAVI**

Xurma g'o'za navi Xorazm Ma'mun akademiyasida O'zRFA Genetika va O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari bilan hamkorlikda yaratilgan. Mualliflar: D.A.Akkujin va boshqalar.

**Navning tasnifi**

Vegetatsiya davri	120-125 kun
O'simlik bo'yi	100-115 sm
Hosildorligi	40-45 s/ga
Bitta ko'sakdagi paxta vazni	5,5-6,5 g.
1000 dona chigit vazni	117-121 g.
Tola chiqishi	37-38 %
Tola uzunligi	34 mm
Mikroneyni	4,5
Tola tipi	IV-tip
Nisbiy uzilish kuchi	3



**Navning kelib chiqishi:** G'o'zaning "Xurma" navi AN-510 va Qirg'iz – 3 navlarining ichki turlararo gibridlash va ko'p marotaba tanlash usuli bilan yaratilgan. [2]

Tajribalarda yangi va istiqbolli g'o'za navlarining so'lish kasalligiga chalinishi har xil sodir bo'lishi aniqlandi. Masalan, 2020 yilda "Xorazm-127" (nazorat) naviga o'g'it me'yorida azot 200kg, fosfor 120kg berib, 0-3-1 tartibida suv berish, 60x15-1 uyaga joylashtirish tartibida 24-45%, 60x20-1 uyaga joylashtirishda 26-48%, 2021 yilda 60x15-1 - 26-51%, 60x20-1 - 28-52%, 2022 yilda 60x15-1 - 30-53%, 60x20-1 - 25-50% kasallangan.

"Sulton" navida 2020-yilda 60x15-1 - 5-19%, 60x20-1 - 8-20%, 2021-yilda 60x15-1 - 6-22%, 60x20-1 - 8-26%, 2022-yilda 60x15-1 - 8-24%, 60x20-1 - 8-24%, "S-8294" navida 2020 yilda 60x15-1 - 3-14%, 60x20 - 14-16%, 2021-yilda 60x15-1 - 3-14%, 60x20-1 - 5-16%, 2022-yilda 60x15-1 - 4-16%, 60x20-1 - 5-17%, "Xurma" navida 2020-yilda 60x15-1 - 8-24%, 60x20-1 - 9-26%, 2021-yilda 60x15-1 - 8-26%, 60x20-1 - 9-26%, 2022-yilda 60x15-1 - 10-28%, 60x20-1 - 11-31% kasallangan. Oddiy oziklanish foni azot 200, fosfor 120 kg 1-3-1 suv berish sxemasi ikkala uyaga joylashtirishda yangi istiqbolli hamda oldindan ekilib kelinayotgan "Xorazm-127" navlarida kasallanish 2-3% oshgan.

Oshirilgan oziklanish tartibida azot 250 kg, fosfor 150 kg berilib, ikkala suv berish tarkibida (0-3-1, 1-3-1) hamda ikkala uyaga joylashtirishda yangi va istiqbolli g'o'za navlarining so'lish kasalligiga chalinishi 5-6% kamaygan. Biologik-genetik xususiyatlariga hamda genotipiga qarab ekilgan barcha navlar "Xorazm-127", "Sulton", "S-8294", "Xurma" 0-3-1 suv berish sxemasining oddiy va oshirilgan oziqlanish tartibida 1-3-1 suv berish tartibiga qaraganda so'lish kasalligi bilan kam kasallangan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'suv davrining g'unchalash, gullash paytida, ko'saklashning boshlarida so'lish kasalligi uncha sezilarli bo'lmaydi, lekin ko'saklar yetilib, 4-5 ko'sak ochilganda buni yaqqol kurish mumkin.

Bu yangi navlarning 0-3-1 suv berish, oddiy va oshirilgan oziqlanish tartibida so'lish kasalligi bilan kam kasallanishiga sabab shuki, bu paytda so'lish kasalligini tarqatuvchi zamburug'larning o'sishi va rivojlanishi uchun sharoit bo'lmagan. 1-3-1 suv berish sxemasida (ayniqsa, g'unchalash davrida suv berilganda) namlik yuqori bo'lishi sababli zamburug'larning rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Shunga qaramasdan tajriba o'tkazilgan joylarda yangi navlarning so'lish kasalligi bilan kasallanishi oldin ekilgan "Xorazm-127", "Xorazm-150", "Mexnat" navlaridan ancha kam bo'ldi. Ekilgan navlar orasida so'lish kasalligiga "Xorazm-127" navi ko'pchalindi. "Xurmo", "S-8294", "Sulton" navlari kam zararlandi. Keyingi natijalar esa so'lish kasalligi bu kasallikka chalingan g'ozaga paykallariga hosildorlikka deyarli ta'sir qilmaganini ko'rsatdi. Shuningdek, paxta tolasining sifati, tola chiqishi, yog' chiqishi ham kamaymadi. Respublikamizda paxta yetishtiriladigan maydonlarda so'lish kasalligining oldini olish va uni kamaytirish yo'li bilan yuqori hosil ko'tarishga erishish uchun ko'proq yangi, istiqbolli navlarni sinab ko'rib, ishlab chikarishga tavsiya qilish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.Oripov "Paxtachilik" Maruzalar kursi., Samarqand 2011 y.
2. B.A. Sulaymonov, B.S. Boltayev, R.SH. Tillayev, Sh.X. Abdualimov. Kuzgi bug'doy va g'ozaga yetishtirish asoslari // Toshkent-2017 y.